XALQ DEPUTATLARI QIBRAY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 25-mart VII-7-34-10-139-K/25 Qibray tumani

Qibray tumanida toponimik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Qibray tumani komissiyasining 2024-yil 23-dekabrdagi hamda 2025-yil 14-yanvardagi yig‘ilish bayoniga asosan Qibray tumanidagi ayrim toponimik obyektlarning nomlari O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonliQonunining 4- va 10-moddalariga muvofiq toponimik obyektlarga nom berilayotganligini inobatga olib, Toshkent viloyati komissiyasi tomonidan yuborilgan 2025-yil 30-yanvardagi 1/12-4-556-sonli hamda 2025-yil 11-fevraldagi 1/12-4-788-sonli yig‘ilish bayonlariga asosan Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarining qonun xujjatlariga muvofiqligi haqida ekspert xulosalarini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 20-yanvardagi hamda 2025-yil 05-fevraldagi yig‘ilish bayonlari qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qibray tumanining Bobur mahallasidagi nomlanmagan 21 ta ko‘chalarni nomlash, turiga o‘zgartirish kiritish va 6 ta geografik obyektni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflar asosida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 20-yanvardagi hamda

2025-yil 05-fevraldagi yig‘ilish bayonlari qarorlari bilan taklif etilgan ko‘chalarning nomlari va turi **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi **(S.Saidov)** va Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali **(F.Abduganiyev)**mazkur o‘zgarishlardan kelib chiqib shu hududda joylashgan aholining uy-joyga egalik qilish huquqini beruvchi kadastr hujjatlariga aholidan mablag‘ undirmagan holda o‘zgartirish kiritib bersin.

4. Qibray tumani hokimi o‘rinbosari **(R.Xasanov)**, tuman IIB boshlig‘i **(I.Rashidov)**, tuman Statistika bo‘limi **(Lavozimga ko‘ra)**, tuman Davlat Soliq inspeksiyasi **(Yo.Artikbayev)**, Davlat xizmatlari markazi **(S.Xolmuxamatov)**, Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi **(D.Mamajonov)**, Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali **(F.Abduganiyev)**, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi **(K.Inoyatov)** va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

- mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e‘tiborga olinsin va ushbu qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimi o‘rinbosari **(R.Xasanov)** va Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi **(D.Mamajonov):**

- 15 kun muddatda hududlardagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalar va uy raqamlarini yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalarni o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish hamda nazoratga olish vazifalari yuklansin;

- bir hafta muddatda hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Tuman Ichki ishlar boshqarmasi **(I.Rashidov)**:

- tuman mahallalari hududidagi yangi nomlangan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi fuqarolik pasportlarini berish va ularni ro‘yhatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklansin.

7. Tumani hokimligi axborot xizmati **(T.Tashxodjayev):**

- Hududlardagi yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarga va hokimlikning veb-saytiga ma’lumotlarni joylashtirsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi F.Bazarbayeva zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



RASHIDOV MUZAFFAR ABRAROVICH

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 25-martdagi
VII-7-34-10-139-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qibray tumanidagi 27 ta ko‘chalarni turiga o‘zgartirish kiritish va qayta nomlash uchun berilgan takliflar

T/r	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning amaldagi nomi	MFY kengash yig‘ilishi tomonidan berilayotgan taklif
1.	Bobur mfy	Berk ko‘cha	Nomsiz	Bobur-1
2.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Bobur-2
3.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Ulug‘ yo‘l-1
4.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Ulug‘ yo‘l-2
5.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Ulug‘ yo‘l-3
6.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Ulug‘ yo‘l-4
7.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Ulug‘ yo‘l-5
8.		Tor ko‘cha	Nomsiz	Ulug‘ yo‘l
9.		Tor ko‘cha	Nomsiz	Marjon-1
10.		Tor ko‘cha	Nomsiz	Marjon-2
11.		Tor ko‘cha	Nomsiz	Marjon-3
12.		Tor ko‘cha	Nomsiz	Marjon-4
13.		Tor ko‘cha	Nomsiz	Marjon-5
14.		Tor ko‘cha	Nomsiz	Marjon-6
15.		Tor ko‘cha	Nomsiz	Marjon-7
16.		Ko‘cha	Nomsiz	Zakovat
17.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Zakovat-1
18.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Zakovat-2
19.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Zakovat-3
20.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Zakovat-4
21.		Berk ko‘cha	Nomsiz	Zakovat-5
22.	Shalola mfy	Ko‘cha	UzCCHITI	Chorvador
23.	Farovon mfy	Ko‘cha	D.O‘.Tash IES	Tong
24.		Ko‘cha	Majnuntol soyasidagi soy	Oltinsoy
25.	Botanika mfy	Ko‘cha	VIR Botanika	Botanika

26.		Ko‘cha	O‘zPITI	Yangilanish